



## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi F-18-sonli Farmoyishi ijrosi bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yana-da jadallashtirish to'g'risida"gi 2025-yil 6-martdagi F-18-sonli Farmoyishi ijrosi bo'yicha "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ rahbariyati tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining Shumanay va Qorao'zak tumani, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani, Namangan viloyati Namangan tumani va Toshkent shahar Sirg'ali tumanlarida hokimlik idoralari bilan birlgilikda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

### M A ' L U M O T

2025-yil 5-martdan boshlab, tumanning **barcha** hududida ishchi guruhlari tomonidan bahorgi obodonlashtirish va "Yashil makon" umummilliy loyihasini tadbiq etish, aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish va og'ir toifadagi mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, investitsiya loyihalarini tadbiq etish hamda paxta va g'alla yetishtirish bo'yicha tayyorgarlik ishlari amalga oshirilmoqda.

#### I. Tashkiliy chora-tadbirlar yo'nalishida

**1.** Hududlarda ishchi guruhlarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni "mahallabay" va "xonadonbay" tashkil etish bo'yicha bo'yicha tashkiliy yig'ilishlar o'tkazildi.

**2.** Tuman hokimligida hokimning birinchi o'rinnbosari rahbarlik qiluvchi **shtablar** tashkil etildi. Hududiy ishchi guruhlar tarkibiga tashkilot va idora rahbarlari biriktirilib, vazifalar belgilab berildi.

**3.** Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan **savolnoma, hisobot shakllari** va boshqa **ma'lumotnomalar namunalari** ishlab chiqilib, hududiy ishchi guruhlar va shtablarga yetkazildi.

#### II. Mahallalar, aholi turar joylarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish yo'nalishida

**1.** Tumandagi barcha mahallalardagi ko'chalarda **obodonlashtirish** va **ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini** tizimli va manzilli tashkil etish bo'yicha reja-

grafiklar ishlab chiqildi.

Grafikka asosan joylarda rejalahtirilgan barcha aksiya va hashar tadbirlari o'tkazildi. Jumladan:

- **1 206 ta** obyektlar (**94 ta məktəb**, **76 bog'cha**, **21 poliklinika**, **1 015 boshqalar**) atroflari obodonlashtrildi;
- **1 231,9 km** lotok, ariq va zovurlari chiqindilardan tozaladi va **23,8 km** qismi bestonlandi;
- **1 473 ta** ko'chalar chiqindilardan tozalandi;
- **162 ta** qabriston (ziyoratgohlar) obod qilindi.

Xashar va askiyalarda **17 018 nafar** fuqarolar ishtirot etishdi.

2. "Obod xonadon" mezonlarini joriy etish yo'nalihsida **6 049 ta** xonadonlarning **tashqi devori** (fasadi), **463 tasining** oshxonasi, **374 tasining tandirxonasi**, **497 tasining molxonasi** va **531 tasining hojatxonasi** ta'mirlandi (oqlandi).

3. "Yashil makon" umummilliy loyihasini tatbiq etish yo'nalihsida bahor mavsumi uchun hududlarda **507,4 ming** dona mevali va manzarali daraxtlar, buta va gul ko'chatlarini ekish bo'yicha rejasiga belgilangan.

Joriy yil **8-aprel** kuniga hududlarda ko'chat ekish ishlari **1 734,8 ming tupni** tashkil qiladi.

Shu bilan birga, loyiha doirasida o'rmon xo'jaliklari tomonidan **72,2 ming** tup ko'chat yetkazib berish topshirig'i nazoratga olindi.

Bugungi kunga kelib xo'jaliklar tomonidan amalda **81,5 ming dona** ko'chat va qalamcha yetkazib berilishi ta'minlandi.

### **III. Aholi tomorqalari va ijara yer maydonlaridan samarali foydalanishni ta'minlash yo'nalihsida**

1. Davlatimiz Rahbari tomonidan belgilab berilgan yangi tizim asosida aholining **tomorqa va ijara yerlaridan samarali foydalanish orqali daromadlarini oshirish chora-tadbirlar rejasি** har bir mahalla kesimida ishlab chiqildi.

**18 ta** motokultivatorlar mavjud bo'lib, usta-dehqon va agronomlar ishtirotida aholi tomorqalarida ishlarni tashkil etilmoqda.

Yangi tizim asosida **58 272 ta** tomorqa yer egalarida mavjud jami **10 211 hektar** yer maydonidan **7 540,8 hektar** qismida erta tayyor bo'ladigan ekish ishlari amalga oshirilib ishlar jadal davom etmoqda.

2. “**Bir mahalla – bir mahsulot**” tamoyilini joriy etish, **mahsulotlarni ichki bozorga yetkazib berish va mahallalarning eksport salohiyatini oshirish** bo‘yicha aniq **hisob-kitoblarni**, aholi tomorqalariga ekiladigan **ekinlarni joylashtirish** (razmешенни) bo‘yicha **prognoz ko‘rsatkichlarini shakllantirildi**.

3. Hududlarda **10 ta** banklar tomonidan “**Bir kontur – bir mahsulot**” tamoyili asosida aholiga ijara asosida berilganjami **112 hektar** yer maydonida **9 ta** loyihani amalga oshirish reja-grafiklari ishlab chiqildi.

#### **IV. Og‘ir toifadagi 1 024 ta mahallalarning infrastrukturasini yaxshilash yo‘nalishida**

**Elektr ta’minoti** bo‘yicha **56 km** elektr uzatish tarmoqlari, **36 ta** transformator punktlari mukammal va joriy ta’mirlandi, rekonstruksiya va modernizatsiya dasturi **938 dona** temir beton tayanchlar o‘rnatilib **2 km** elektr uzatish tamog‘i qurib bitkazildi amalga oshirilgan ishlar natijasida **5 068 nafar** aholining elektr ta’minoti yaxshilandi;

Gaz ta’minoti bo‘yicha **50 mm** diametrdagi **200 metr** o‘rta bosimdagи gaz quvurlari rekonstruksiya va modernizatsiya qilindi hamda **1 dona** yuqori bosimli gaz taqsimlash punkti o‘rnatildi, amalga oshirilgan ishlar natijasida **730 nafar** aholining gaz ta’minoti yaxshilandi.

Tuman hududida tabiiy gaz yetib bormaydigan **1 506 dona** xonadonlarga suyultirilgan gaz balonlari yetkazilib almashtirib berildi.

Tuman hududidagi **1,7 km** tuproqli ichki yo‘llarni shag‘alashtirildi.

Aholi tomorqalarini sug‘orish uchun **70,3 km** ichki ariq va kanallar tozalandi va **2,35 km** qismi betonlashtirildi.

#### **V. Ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish, migratsiyadagilar bilan manzilli ishslash yo‘nalishida**

1. “Ihsiz fuqarolarning **946 nafarini** bandligi ta’minlandi.

2. “Kambag‘al oilalarning **4- va 5-toifasiga** kiruvchi oilalar hamda rahbarlarga biriktirilgan **1 030** ta oilalarga qonunchilikda belgilangan **363 ta** (bandlik va daromad manbasini yaratish, ta’lim va kasb-hunarga o‘rgatish, tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish, xonodon infratuzilmasi va yashash sharoitlarini yaxshilash) yo‘nalishda xizmatlar ko‘rsatish ishlari tashkillashtirildi.

3. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan **541 mln so‘m homiylik mablag‘lari ajratilib** ushbu mablag‘lar xisobidan sharoiti og‘ir **18 ta** xonadonlarni tom qismi profnastil bilan yopildi, **60 nafar** fuqarolar tibbiy

ko‘rikdan o‘tkazildi, **11 nafar** oila farzandlariga xorijiy tillarda o‘qishga yo‘llanma berildi, **2 ta** uy qurish ishlari boshlandi, **2 bosh** qo‘y, **2 ta** nogiron aravachalari, **320 dona** parranda, **5 dona** pishiriq pechlari, 1 ta xonadonni pol kismi va tepa kismi tamirlandi, **23 ta** xonodon uchun quvvati **3-5 kVt**dan jami **79 kVt** bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatish ishlari boshlandi hamda **30 nafar** xotin-qizlar kasb-hunarga o‘qitildi.

**3.** Mahalla yettiligi” tomonidan xorijiy davlatlarga ishslash va daromad topish maqsadida ketgan **5 263 nafar migrantlar** bilan muloqotlar o‘tkazdi va kam daromad topayotgan migrantlarning **260 nafari** yashash joylariga qaytarilib bandligi ta’minlandi.

#### **VI. “Navro‘z” umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish doirasida mahallalarda hunarmandchilik va kitob ko‘rgazmalari, milliy sport o‘yinlari, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va sport tadbirlari hamda oziq-ovqat yarmarkalarini tashkil etish yo‘nalishida**

Yuqoridagi tadbirlarni har bir mahallalarda tashkil etish bo‘yicha manzilli **reja-grafiklar ishlab chiqildi va amaliyatga tadbiq etildi**. Jumladan:

**1.** Joylarda **495 ta** madaniy tadbirlar (**87 ta sumalak sayli, 21 ta darvishona, 50 ko‘klam** taomlarini tayyorlash, **29 ta** hunarmadchilik ko‘rmazmasi), **316 ta** sport, **129 ta** milliy sport musobaqalari va **334 ta** ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.;

*Ushbu tadbirlarga jami **132 417 nafar** aholi jalb etildi.*

**2.** Hududlardagi olis, chekka hududlardagi va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan og‘ir **16 ta** mahallalarda **11 ta** arzonlashtirilgan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari va **18 ta** ko‘chma do‘konlar tashkil etildi.

#### **VII. Mahallalarda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan mikro loyihalarni amalga oshirish choralarini ko‘rish ichlari bo‘yicha**

Yil boshidan shu kunga qadar mahallalarda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan **268 ta** mikroloyihalar amalga oshirildi. Xususan oilaviy tarbirkorlikni rivojlantirish maqsadida chorvachilik, parrandachilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mikroloyihalar amalga oshirildi.

Oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish bo‘yicha **20 ta** tikuv mashinasasi va **380 ta** fuqaroga **4,13 mlrd** so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi.

670 **ta** fuqaroni o‘zini-o‘zi band qilinishi ta’minlandi.

## VIII. Boshqa yo‘nalishlarda

### **1. Investitsiya loyihamalarining bajarilishi bo‘yicha**

Joriy yilda jami **39 ta** loyiha doirasida **370,9 mln**, shundan **361,6 mln** dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirilishi belgilangan.

### **2. Paxta va g‘alla hosilini yetishtirish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari bo‘yicha**

2025-yil hosili yetishtirish uchun tumanning **22 100 hektar** ekin maydonlariga g‘alla ekilgan bo‘lib, hozirda jami **22 100 hektar** maydon (**100%**) unib chiqqan.

Bahorgi agrotexnik tadbirlar rejasiga asosan bugungi kunga **7050 hektar** g‘alla yer maydonlari **azotli mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirildi bahorgi birinchi sug‘orish ishlari** tashkil etildi.

Ishchi guruqlar tomonidan **234 ta** mahallada o‘rganish va ko‘maklashish ishlari davom etmoqda.

**Ma’lumot o‘rnida:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi F-18-sonli Farmoyishi ijrosi bo‘yicha belgilangan ishlar davom ettirilmoqda.

**Hisobot matni “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Iqtisodiy tahlil va rejalashtirish boshqarmasi tomonidan tayyorlandi**